



Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **13 414,8** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **12,6** %ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **2 339,5** mlrd so'mni (**52,6** %ga oshgan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **11 075,3** mlrd so'mni (**6,7** %ga oshgan), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 194,7** mlrd so'mni (**5,0** %ga oshgan) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **13 414,8** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **112,6** %ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmining barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **82,6** % va yirik korxonalar hissasiga **17,4** % to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **38,0** % ko'rsatkich bilan **5 094,5** mlrd so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,8** % ulush bilan **246,6** mlrd so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2022- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **11 075,3** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **6,7** %ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **82,6** %ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,9 %), Gurlan (99,3 %) va Bog'ot (99,2 %) , Yangiariq (99,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi 12,6 foizga oshib, yuqori o‘shish sur‘atlari Urganch shahrida – 121,9 %, Qo‘shko‘pir tumanida – 119,9 %, Tuproqqal‘a tumanida– 111,8 %ni tashkil qildi.

Chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda





	Jami, mln so‘m	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so‘m	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	13 414 765,1	112,6	2 339 473,0	152,6	11 075 292,1	106,7
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	5 094 484,8	121,9	2 105 817,9	166,6	2 988 666,9	102,5
Xiva	484 242,0	111,7	27 208,4	106,8	457 033,6	112,1
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	691 975,2	106,5	5 350,6	102,9	686 624,5	106,6
Gurlan	1 048 711,1	108,2	7 103,3	28,2	1 041 607,8	110,3
Qo‘shko‘pir	568 509,0	119,9	20 743,0	92,9	547 766,0	121,2
Urganch	1 270 546,7	103,9	35 115,7	53,3	1 235 431,0	106,8
Hazorasp	1 339 304,9	110,0	56 863,9	91,6	1 282 441,1	111,0
Tuproqqal‘a	246 582,1	111,8	264,4	46,4	246 317,7	112,0
Xonqa	777 865,1	103,1	38 300,1	146,8	739 564,9	101,5
Xiva	320 545,2	106,6	4 534,8	84,4	316 010,4	107,0
Shovot	782 945,8	109,7	21 410,9	167,0	761 534,9	108,6
Yangiariq	490 423,6	102,1	3 925,4	132,0	486 498,1	101,9
Yangibozor	298 629,7	102,0	12 834,5	87,8	285 795,3	102,8

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **52,6 %**ga oshdi va **2 339,5** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **11 075,3** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **6,7 %**ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,6 %**ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,9 %), Gurlan (99,3 %) va Bog'ot (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,4 %ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (41,3 %), Xiva shahri (5,6 %) va Xonqa tumanida (4,9 %) kuzatildi.





**XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi o'rtacha **6 910,6** ming so'mni (2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **10,7** %ga oshgan) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Urganch shahri (119,8%), Qo'shko'pir tumani (118,1 %) va Xiva shahrida (109,7 %) qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (34 352,6 ming so'm), Gurlan (6 845,4 ming so'm) va Hazorasp (6 683,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	6 910,6	110,7
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	34 352,6	119,8
Xiva	5 038,9	109,7
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	4 046,6	104,7
Gurlan	6 845,4	106,4
Qo'shko'pir	3 202,9	118,1
Urganch	6 126,1	101,9
Hazorasp	6 683,2	108,5
Tuproqqal'a	4 303,4	108,3
Xonqa	4 024,1	101,3
Xiva	2 124,2	105,0
Shovot	4 453,6	107,9
Yangiariq	4 090,3	100,4
Yangibozor	3 314,4	100,4

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 194,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **5,0** % ga o'sdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 087,0** mlrd so'mni (o'zgarish sur'ati 96,1 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 107,7** mlrd so'mni (o'zgarish sur'ati 115,7 %) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 1 087,0 mlrd so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 1 107,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Xorazm viloyati	2194,7	105,0	1087,0	49,5	1107,7	50,5
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	387,0	82,7	234,4	60,6	152,7	39,4
Xiva	99,3	179,7	92,3	93,0	7,0	7,0
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	298,6	103,7	69,6	23,3	229,0	76,7
Gurlan	279,9	127,2	82,7	29,5	197,3	70,5
Qo'shko'pir	256,0	157,6	181,0	70,7	75,0	29,3
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	235,8	117,8	127,4	54,0	108,4	46,0
Tuproqqal'a	21,7	65,9	11,9	54,7	9,8	45,3
Xonqa	149,6	75,3	113,7	76,1	35,8	23,9
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	362,1	114,8	114,0	31,5	248,1	68,5
Yangiariq	57,4	80,9	30,5	53,2	26,8	46,8
Yangibozor	47,3	61,1	29,5	62,3	17,8	37,7

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



13,4
mlrd so'm

Tuzlamalar



459,5
mlrd so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



45,2
mlrd so'm

**Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

118,0
mlrd so'm



**Non va non
mahsulotlari**



25,5
mlrd so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

25,2
mlrd so'm



Tuxum

170,2
mlrd so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

50,2
mlrd so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

98,9
mlrd so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari va boshqa
nooziq-ovqat tovarlari)**

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **1 087,0** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**395,9** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

21,3
mlrd so'm



Ziravorlar

59,6
mlrd so'm



Tovuq go'shti


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 107,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 000,3 mlrd so'mni, qo'y va echkilar savdosi 98,3 mlrd so'mni, parrandalar savdosi 8,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %**ni tashkil etib, **221,3** mlrd so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **16,6 %**ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **96,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln so‘m	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so‘m	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	221 255,3	116,6	7 554,6	0,0	213 700,6	112,6
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	110 846,6	118,9	7 554,6	-	103 292,0	110,8
Xiva	7 120,5	105,4			7 120,5	105,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	7 605,5	107,0			7 605,5	107,0
Gurlan	5 802,6	115,3			5 802,6	115,3
Qo‘shko‘pir	3 141,1	108,6			3 141,1	108,6
Urganch	35 611,0	111,2			35 611,0	111,2
Hazorasp	10 550,5	108,3			10 550,5	108,3
Tuproqqal'a	3 898,5	115,8			3 898,5	115,8
Xonqa	6 034,8	125,0			6 034,8	125,0
Xiva	5 455,1	114,6			5 455,1	114,6
Shovot	16 862,2	127,5			16 862,2	127,5
Yangiariq	3 922,6	111,3			3 922,6	111,3
Yangibozor	4 404,4	134,1			4 404,4	134,1

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **5 386,9** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **19,7** %ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **916,2** mlrd so'mni (**79,1** %ga ko'paydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **4 470,6** mlrd so'mni (**12,1** %ga ko'payish) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

5 386,9 mlrd so'm, 100 %


Yirik korxonalar

916,2 mlrd so'm, 17,0 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

4 470,6 mlrd so'm, 83,0 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangiariq tumani (101,7 m.), Bog‘ot tumani (2376,4 m.) va Xonqa tumanida (24,7 m.) qayd etildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o‘zgarish sur‘ati Bog‘ot tumani (3,1 m.), Gurlan tumani (2,0 m.), Xonqa tumani (2,3 m.) va Yangiariq tumanida (188,9%) kuzatildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln so‘m	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln so‘m	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	5 386 872,3	119,7	916 232,9	179,1	4 470 639,5	112,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	2 617 679,1	104,1	216 798,9	78,1	2 400 880,2	107,4
Xiva	194 047,4	133,5	567,5	58,8	193 479,9	134,0
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	122 382,6	3,1 m.	67 093,9	2376,4 m.	55 288,7	138,7
Gurlan	240 913,0	2,0 m.	105 236,7	3,8 m.	135 676,3	147,2
Qo‘shko‘pir	45 072,0	183,2	58,3	133,4	45 013,7	183,3
Urganch	961 449,3	123,4	256 196,5	136,5	705 252,8	119,3
Hazorasp	105 363,6	136,5	13 293,5	7,0 m.	92 070,1	122,3
Tuproqqal‘a	61 700,6	131,6	57,3	77,6	61 643,2	131,7
Xonqa	384 202,2	2,3 m.	219 596,1	24,7 m.	164 606,1	103,0
Xiva	339 746,5	107,9	75,3	22,8	339 671,2	108,0
Shovot	90 153,2	110,9	91,0	93,1	90 062,2	110,9
Yangiariq	136 028,5	188,9	35 305,9	101,7 m.	100 722,7	140,6
Yangibozor	88 134,4	107,3	1 861,9	106,7	86 272,4	107,3




YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **4 470,6** mlrd so'mni tashkil etgan va 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **12,1** %ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **83,0** %ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Xiva (100,0 %), Qo'shko'pir, Tuproqqal'a, Shovot (99,9) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Xonqa tumani (42,8 %) va Bog'ot tumaniga (45,2 %) to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09